



SUG'URTA BOZORI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Toshnazarova Lola Shuxratulayevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Received: xxxx Accepted: xxxx Issue: 1 DOI: xxxx	Ko'pgina sohalarda bo'lgani kabi, sug'urta sohasida ham infratuzilma muhim rol o'ynaydi. Infratuzilmaning rivojlanishi sug'urtalanuvchilar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratib beradi va bu o'z o'rnida sug'urtalanuvchilar sonining ko'payishiga olib keladi. Ushbu maqolada shu masalada fikr yuritilgan bo'lib, muallifning fikriga ko'ra, O'zbekiston sug'urta bozorida infratuzilma subyektlari faoliyati talab darajasida emas va bu sug'urta bozorining rivojlanishiga imkoniyat yaratib bermayapti. Shu maqsadda sug'urta agentlari faoliyatini takomillashtirish va assistans faoliyatini rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, milliy qayta sug'urta bozorini rivojlantirish imkonini beruvchi maxsus o'zaro qayta sug'urta jamiyatini tashkil etish masalasida fikrlar berilgan.
KEYWORDS Sug'urta, infratuzilma, sug'urta bozori infratuzilmasi, sug'urta agentlari, assistans, o'zaro sug'urta, qayta sug'urta, qayta sug'urtaga ixtisoslashgan o'zaro sug'urta.	

Kirish

Mustaqillik yillarida sug'urta bozorining institutsional asoslarini yaratish va uning samarali faoliyat yuritishi uchun maxsus qonun va bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlar respublikada sug'urta bozorini shakllantirish, uning faoliyatida davlat, iqtisodiy agentlar va sug'urtalovchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, sug'urtalovchilar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlash, sug'urta kompaniyalarining ikkinchi daromad manbai bo'lgan investitsion faoliyatni tartibga solish va eng asosiysi sug'urta kompaniyalari tomonidan olingan katta hajmdagi javobgarliklarni ta'minlash maqsadida ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan.

Milliy iqtisodiyotda sug'urta bozorini rivojlantirish bo'yicha davlat tomonidan olib borilgan chora-tadbirlar natijasida respublikada sug'urta bozori infratuzilmasi ma'lum darajada takomillashib borayotgan bo'lsada, bu yetarli emasligi ko'zga tashlanmoqda. Infratuzilma subyektlarining aksariyat qismi tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va turlari pastligicha saqlanib qolmoqda. Bu esa mazkur sohani ilmiy jihatdan hamda chet mamlakatlar tajribalarini o'rganish asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish zarur degan xulosaning shakllanishiga olib keladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (analiz ispolzovannyo literaturey. Literature review). Sug'urta infratuzilmasining sug'urta bozori rivojlanishidagi o'zni va mazkur infratuzilmani rivojlantirish masalalarida dunyo mamlakatlari, shu bilan birga mamlakatimiz olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. G.B. Yermolayev sug'urta bozorida rivojlangan infratuzilmaning zarurligini ta'kidlab shunday deydi: mutaxassislar kichik biznesning sug'urtadagi o'zni haqida bir xil fikrda emas. Ushbu qarama-qarshiliklar sug'urta kompaniyalarining o'ziga tegishli, ammo sug'urta bozorining rivojlangan infratuzilmasi zarurligiga shubha yo'q [1]. A.A.Synganov shunday ta'kidlaydi: yuqorida amalga oshirilgan tahlillar asosida sug'urta infratuzilmasi to'g'risida quyidagi ta'rifni keltirish mumkin: sug'urta bozori infratuzilmasi sug'urta faoliyatini rag'batlaniradigan, uning samaradorligini oshiradigan, lekin to'g'ridan-to'g'ri sug'urta faoliyati bilan shug'ullanmaydigan va sug'urta fondini shakllantirmaydigan subyektlarni o'z ichiga olishi kerak. Bularni sug'urta bozorining vositachilari, biznes va institutsioan infratuzilma subyektlariga ajratish to'g'ri bo'ladi[2].

O'zbekistonlik olimlar X.Shennayev va T.Boymurodovlarning fikriga ko'ra, sug'urta bozori infratuzilmasi uning professional ishtirokchilari va boshqa soha mutaxassislari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sifatida sug'urta faoliyatida risklar transferining samaradorligini ta'minlovchi omil sanaladi [3]. Q.M.Qo'ldoshev sug'urta bozori infratuzilmasini rivojlantirishning omili sifatida. sug'urta bozori infratuzilmasini shakllantirish va uning subyektlari faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish O'zbekistonda sug'urta bozori taraqqiyotini yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqadi deya ta'kidlaydi [4].

Amalga oshirilgan tadqiqotlarda sug'urta infratuzilmasining sug'urta faoliyatida va uning samaradorligini oshirishda hamda rivojlantirishda muhim o'rin tutishi asoslangan bo'lib, ammo ushbu infratuzilmani rivojlantirish borasida aniq takliflar berilmaganligini keltirib o'tish mumkin.

Tadqiqot maqsadi va usullari (Metodologiya i isledovaniya Research Methodology). Tadqiqotni amalga oshirishdan maqsad sug'urta bozori infratuzilmasi holatini va mavjud muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etish va shu asosda rivojlantirishga yo'naltirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotni amalga oshirishda qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishda mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish, iqtisodiy-statistik tahlil, o'zaro va qiyosiy taqqoslash usullaridan samarali foydalanilgan.

Tahlil va natijalar (Analiz i rezultaty. Analysis and results). Iqtisodiy nazariyada infratuzilma tushunchasidan keng foydalaniladi. Iqtisodiyotda xuddi tarmoqlar kabi, infratuzilma ham ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmasiga bo'linadi. Ikki yo'nalishda ham infratuzilma iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarining barqaror rivojlanishiga zamin va sharoit yaratadi. Infratuzilmaning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish turlariga aniqlik kiritadigan bo'lsak, ishlab chiqarish infratuzilmasiga transport va aloqa, noishlab chiqarish infratuzilmasiga sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, jismoniy tarbiya va sport, moliya tizimi va boshqalar kiradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda sug'urta infratuzilmasini tor va keng doirada talqin qilinadi. Keng doirada, sug'urta infratuzilmasini sug'urta bozorining uzluksiz faoliyat ko'rsatish sharoiti sifatida tushuniladi. Keng doiradagi sug'urta bozori infratuzilmasi institutsional infratuzilma,

ikkilamchi sug'urta bozori (qayta sug'urtalash), sug'urta ta'limi tizimi va boshqa sharoitlarni o'z ichiga oladi.

Sug'urta infratuzilmasi tor doirada, umuman sug'urta bozori qay darajada rivojlanganligini belgilovchi, ma'lum institutlarning mavjudligi bilan ifodalanadi. Sug'urtaning tor ma'nodagi infratuzilmasiga quyidagilar kiradi:

- sug'urta vositachilari (sug'urta agenti, sug'urta va qayta sug'urta brokerlari);
- sug'urta baholovchilari;
- sug'urta aktuariylari.

(1-jadval). Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2021-yil yakunlari bo'yicha milliy sug'urta bozori infratuzilmasida sug'urta agentlari va sug'urta kompaniyalarining bo'linmalari soni yuqori o'sish darajasiga ega bo'lgan. Ammo shuni ta'kidlash kerak, rivojlangan bozorlarda, odatda adjasterlar, syurveerlar, assistans va sug'urta

tutilgan. Ushbu qaror asosida qabul qilingan yo'l xaritasida "Sug'urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish va kengaytirish" deb nomlangan alohida bo'lim shakllantirilib, unda yangi tahrirdagi Sug'urta agentlari to'g'risida nizom ishlab chiqish, Adjester, syurveyer va assistans xizmatlari sohalaridagi subyektlar ishini tashkil qilishni tizimlashtirish va iste'molchilar manfaatlarini uchun ushbu xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha yagona talablarni joriy etishga qaratilgan adjester, syurveyer va assistans xizmatlarini ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish, O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasining faoliyati samaradorligini oshirish va faollashtirish, ichki sug'urta bozori sig'imini oshirish, shuningdek, qayta sug'urta sohasida samarali faoliyatni tashkil qilish borasidagi ilg'or xorijiy tajribani o'rganish belgilangan.

Sug'urta agentlari faoliyatini olib qaraydigan bo'lsak, sug'urta

1-jadval

O'zbekiston sug'urta bozori infratuzilmasi subyektlari sonining yillar davomida o'zgarish dinamikasi*

Subyektlar	2013	2014	2015	2017	2020	2021	2013-yilga nisbatan 2021-yilda o'sish
Sug'urta kompaniyalari	31	31	26	27	41	42	+11
Sug'urta brokerlari	4	2	3	3	5	5	+1
Sug'urta agentlari	5500	5800	5800	7200	8870	9536	+4036
Assistans	8	9	8	10	9	9	+1
Syurveer	6	7	6	8	7	7	+1
Adjaster	4	5	4	6	6	6	+2
Aktuariy	2	2	4	4	5	5	+3
Sug'urta kompaniyalari bo'linmalari	993	1048	1123	1284	1873	1965	+972

* IMDA.UZ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

brokerlari soni hamda ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi katta bo'ladi. Tahlil uchun olingan olti yil oralig'ida mamlakatimizda ushbu subyektlar sonida o'sish deyarli yuz bermagan.

Sug'urta sohasida sug'urta infratuzilmasini zamon talablari darajasida rivojlantirish sug'urta bozori rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ushbuni e'tiborga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida[5] sug'urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, ushbu qarorda sug'urta brokerlari faoliyatini faollashtirish, sug'urta agentlarining ishlash tizimini takomillashtirish, banksug'urta mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, umuman sug'urta bozori professional ishtirokchilarining rolini oshirish orqali sug'urta bozori infratuzilmasini rivojlantirish va kengaytirish masalasi ko'zda

vositachilari ichida sug'urta agentlari faoliyati mamlakatimizda sezilarli darajada kengayganligini ta'kidlash mumkin. Ushbu subyektlar soni bugungi kunda 9 mingdan ortiqni tashkil etmoqda. Ammo ular klassik tarzda sug'urta agenti bajarishi kerak bo'lgan funksiyalarni bajaryaptimi? Sug'urta sohasidagi adabiyotlar va sug'urta atamalarini lug'atlarida sug'urta agentiga shunday ta'rif beriladi: sug'urta agenti – sug'urtalovchining nomidan va uning topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasini tuzish va uning ijro etilishini tashkil qilish bo'yicha faoliyat yurituvchi yuridik yoki jismoniy shaxs[6]. O'zbekiston sug'urta bozorida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta agentlari esa sug'urtalanuvchi bilan sug'urta shartnomasini tuzish va sug'urta mukofotining to'lanishini ta'minlash bilan mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha o'z faoliyatini yakunlaydi, shartnomaning amal qilish davri davomidagi holat bo'yicha

sug'urta agentidan hisob so'ralmaydi. Bu esa sug'urtalanuvchi uchun ba'zi tushunmovchilik va qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Adjaster, syurver va assistans kabi sug'urta bozorining ishtirokchilari ham sug'urtalanuvchilarga turli ko'rinishdagi professional xizmatlarni to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatuvchi ishtirokchilar hisoblanib, ular tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar sug'urtalanuvchilar uchun ko'pgina qulayliklarni yaratadi. Katta bir mamlakat sug'urta bozorida bugungi kunda bor-yo'g'i 20 dan ortiqroq shu kabi subyektlar faoliyat ko'rsatmoqda va ular ham asosan bir nechta yirik sug'urta kompaniyalari qoshida tashkil etilgan tashkilotlar hisoblanadi. Ularning faoliyati bozorda sezilarli darajada emas.

O'zbekiston sug'urta bozorida hammasi bo'lib 5 ta brokerlik tashkiloti faoliyat ko'rsatib, ular asosan qayta sug'urta sohasida vositachilik qilishmoqda. Sug'urta bozori rivojlangan mamlakatlarda brokerlik faoliyati keng va mukammal tashkil etilgan bo'lib, buning sababi sug'urta brokerlari sug'urta agentlaridan ko'ra sug'urtalanuvchilarga ko'proq qulayliklar va ayniqsa tanlash imkoniyatini yaratib berish imkoniyatiga ega.

Aktuar xizmatlar sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda optimal tarif stavkalarini qo'llash hisobiga bozorda raqobatbardosh bo'lish imkoniyatini yaratib berishi bilan sug'urta sohasidagi muhim subyektlardan biri hisoblanadi. Shuni hisobga olgan holda, hukumatimiz tomonidan sug'urta kompaniyalariga aktuar xizmatlardan bir yilda kamida bir marta foydalanish majburiy etib belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga aktuar faoliyat nisbatan murakkab faoliyat bo'lib, bu esa matematika hamda ehtimollar nazariyasi sohalarida maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi. Shu va boshqa sabablar natijasida hozirga qadar mamlakatimizda malakali aktuariylar yetishmovchiligi davom etmoqda va hammasi bo'lib 5 ta aktuar tashkilotning xizmatlari bozorni sifatli aktuar xizmatlar bilan ta'minlab bera olmayapti.

Amaliyotda sug'urta kompaniyasi bilan manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelganda, odatda iste'molchilar - sug'urta xizmatlaridan foydalanuvchilar zaif holatga tushib qolishadi. Ehtimol ular bunday holatga birinchi marta tushayotgandir, buning asosiy sababi ularning sug'urta qoidalarini tushunmaganliklaridan. Ammo sug'urta kompaniyasi uchun bu odatiy holat va u bunday sharoitda o'z manfaatini to'g'ri himoya qilish mexanizmlarini ishlab chiqqan va bu borada katta tajribaga ega. Bundan tashqari, aksariyat mizojlar shartnoma shartlari bilan chuqur tanishmaydi va o'zlarining huquqiy maqomlarini yaxshi bilishmaydi. Bunday muammolarni ijobiy hal qilish, mijozlarga yordam ko'rsatish, ular qiyin ahvolda qolganlarida qo'llab-quvvatlash borasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat turi rivojlangan sug'urta bozorlarida allaqachon shakllanib bo'lgan va bu assistans kompaniyalarining xizmatlaridir. Biroq, mamlakatimizda ushbu bozor segmenti rivojlangan davlatlarga nisbatan ancha orqada va yetarli darajada rivojlanmagan.

"Assistans" tushunchasi (ingliz tilida assistance – yordam) yordam, ko'mak, qo'llab-quvvatlash degan ma'nolarni anglatadi. Xalqaro biznes yuritishda "assistans" – bu jismoniy va yuridik shaxslarga texnik, tibbiy, servis, informatsion, huquqiy va moliyaviy yordam ko'rsatishga qaratilgan faoliyatning asosiy yo'nalishini ko'rsatadigan kompaniyalar nomlariga qo'shimcha sifatida ishlatiladigan umumiy qabul qilingan atama hisoblanadi[7].

Assistans dunyoning ko'plab mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyatining turi sifatida keng rivojlangan. Birinchi marta ushbu xizmat turi Fransiyada XX asrning 60-yillari boshlarida paydo bo'ldi. Aynan o'sha paytda assistans tibbiy xarajatlarni klassik sug'urtalashdan tashqari, o'z mijozlariga vaqtida sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash (yo'lga qo'yish) maqsadida kompaniyalar ko'rinishida paydo bo'la boshlagan. Asosiysi, bunda barcha xarajatlarni sug'urta kompaniyasining o'zi amalga oshirgan.

Shunday qilib, assistansning asosiy vazifasi – bu sug'urta kompaniyasi mijozlariga xizmat ko'rsatish sifatini nazorat qilish, mijozlar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularga xizmat ko'rsatish, xizmat ko'rsatuvchilar (tibbiyot muassasalari, texnik xizmat ko'rsatuvchi

markazlar, evakuatorlar, yurist va advokatlar, mehmonxonalar) bilan hamkorlikda ishlashni takomillashtirish, shuningdek mintaqaviy xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, yordamchi assistanslar (sug'urtaga aloqasi bo'lmagan) onlayn transport xizmatlari (taksilar, mikroavtobuslar) tashkil etishni o'z ichiga olgan xizmatlar, shaxsiy assistans (sovg'alar, gullar, kuryerlik xizmatlari, gidlar va boshqalar), uy hayvonlari (mushuk, itlar va h. k) uchun tibbiy xizmat assistansi, ijara (uy, ofis, avtotransport va h. k) assistanslari ham mavjud.

Tashkiliy-huquqiy shakliga qarab assistanslar sug'urta kompaniyasi tarkibidagi va alohida yuridik shaxs sifatidagi ko'p tarmoqli assistans (multiassistans) shaklida bo'ladi. Sug'urta kompaniyasi tarkibida assistansni tashkil etishning ijobiy tomonlari bu - sug'urta mahsulotlarini yaratish va sotish bo'limlari bilan o'zaro yaxshi konstruktiv aloqalarning shakllanishidir. Bunday aloqalar hamkorlikda ishlash tizimini kuchaytiradi va natijada mijozlarga yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatiladi, shuningdek, mijozlarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga tezkor ta'sir qilish imkoniyatini oshiradi.

Assistans va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning samaradorligi - sug'urta kompaniyasi o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini qanday darajada bajarishiga, ya'ni ma'lumotlar bazasini o'z vaqtida taqdim etishi yoki sug'urta polisining haqiqiyligini tasdiqlashi, assistansning ushbu masaladagi so'roviga operativlik bilan javob berishiga bog'liq, shuningdek, taqdim etilayotgan xizmatlar va aniq ko'rsatilgan sug'urta shartlarining mavjudligi, asosiysi o'zaro hamkorlik shartnomasi shartlariga muvofiq hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi[8]. Zarur bo'lganda sug'urta kompaniyasi ko'rsatilayotgan xizmatlarning haqiqiy hajmini, ishlatilgan materiallarning aniq nomi, miqdori va ularning haqiqiy narxini aniqlash asosida xududda tasdiqlangan yoki belgilangan narxlarini provayderlar yoki assistanslardan so'rashi va nazorat qilishi mumkinligiga bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sug'urta bozorida assistans faoliyati bozor mexanizmlarining ishlashini ta'minlashi, ya'ni sug'urtalanuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) deb ataluvchi sug'urta mahsulotlari iste'molchilarining sug'urta xizmatlaridan foydalanish paytida yuzaga keladigan muammolarini hal qilish, oldini olish, ularga yordam (tibbiy, texnik, huquqiy) ko'rsatish, ularni qo'llab-quvvatlashi bilan muhim hisoblanadi. Bozorda faoliyat yuritish va raqobatchilardan ustunlikni ta'minlashda sug'urta kompaniyalarining sug'urta shartnomasi imzolangandan keyingi faoliyati muhimlik kasb etadi. Bu faoliyat turini bozorda assistans kompaniyalari taqdim etadi.

Yuqorida aytilganidek, assistans kompaniyalarining asosiy maqsadi sug'urta mahsulotlari mizojlarini har tomonlama ko'llab-quvvatlashdir. Afsuski hozirgi kunda ko'pchilik sug'urta kompaniyalari sug'urta shartnomasi imzolangandan keyingi jarayonni nazorat qilishmaydi yoki bu sohada deyarli nazorat mavjud emas. Bunga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi, ya'ni sug'urta kompaniyasining katta-kichikligi, ularda xizmat ko'rsatuvchi assistans xizmatlarining yo'lga qo'yilmaganligi, bu boradagi xarajatlarning yuqoriligi va boshqa holatlar. Shu munosabat bilan, assistans faoliyatining yoki sug'urta kompaniyalari faoliyatida assistans xizmatlarini tashkil etishning normativ-huquqiy bazasini yaratish, ular faoliyatini har tomonlama rag'batlantirish (soliq imtiyozlari berish) muhim ahamiyat kasb etadi.

Sug'urta bozori infratuzilmasining barqarorligi va ishonchligini, shuningdek, uning faoliyat samaradorligini oshirish sug'urta bozori rivojlanishining zarur shartidir. Bu quyidagi chora-tadbirlar majmuasini amalga oshirishni o'z ichiga olishi kerak:

- sug'urta brokerlari va sug'urta agentlari institutini rivojlantirish va ular faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish hamda samarali nazorat qilish mexanizmini yaratish. Vositachilarning o'z xizmatlari sifati uchun mas'uliyatini oshirish. Xizmat ko'rsatish shartlarini (shu jumladan komissiya miqdorini) belgilashda sug'urtalovchilar, sug'urta brokerlari va sug'urta agentlari manfaatlari muvozanatini ta'minlash;

- aktuar faoliyatni qonun hujjatlari bilan tartibga solish, sug'urta aktuariylari institutini shakllantirish, sug'urtalovchi tomonidan qo'llaniladigan sug'urta tariflarining asosililigi va shakllantirilgan sug'urta zahiralarning yetarililigi tasdiqlovchi aktuar xulosalarni aktuariylar tomonidan tuzish amaliyotini joriy etish;

- sug'urta shartnomasini tuzish bosqichida risklarni professional baholashni amalga oshiruvchi sug'urta syurveerlari, zararni baholash va yo'qotishlarni bartaraf etish bo'yicha professional faoliyatni amalga oshiruvchi favqulotda vaziyatlar komissarlari va administratorlari institutini shakllantirish, ularning faoliyatini, huquqlari, burch va majburiyatlarini belgilash, ular faoliyatini sertifikatlashtirish mexanizmini va nazorat qilish shakllarini ishlab chiqish;

- sug'urta kompaniyalarining ishonchiligi va moliyaviy barqarorligini baholash maqsadida ularga reyting ballarini berish tizimiga nisbatan talablarni oshirish. Reyting tashkilotlari faoliyatining mustaqilligi va oshkorligini ta'minlash;

- Sug'urtalovchilar assotsiatsiyasining maqomi va rolini oshirish, buning uchun: Sug'urtalovchilar assotsiatsiyasining sug'urta bozoriga taalluqli axborot resurslarini to'plash tizimini shakllantirish, ushbu tizimni davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining axborot tizimlariga integratsiyalashuvini ta'minlash;

- Sug'urtalovchilar assotsiatsiyasi tomonidan o'z a'zolarining sug'urta faoliyati bilan bog'liq zararlilik ko'rsatkichlarini doimiy tahlil qilib borishni yo'lga qo'yish va ushbu tahlillar asosida tavsiyalar ishlab chiqish;

- sug'urta va sug'urta hodisalarining ayrim turlari bo'yicha risklar xaritalarini ishlab chiqish va joriy etish;

- sug'urtalovchilar va sug'urtalanuvchi bo'lgan yuridik hamda jismoniy shaxslar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal etishda hakamlik sudlari faoliyatini kengaytirish orqali mazkur jarayonlarning arzon va sifatli amalga oshirishini ta'minlashga erishish;

- sug'urtalovchilar faoliyatini xalqaro amaliyot bilan uyg'unlashtirish hamda xalqaro darajadagi sug'urtalovchilar uyushmalari bilan o'zaro hamkorlik amaliyotini kengaytirish;

- assistans xizmatini rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlash. Bunda chet mamlakatlarning ilg'or tajribalarini amaliyotga joriy etish maqsadida chet mamlakatlarning assistanslik tashkilotlarini to'g'ridan-to'g'ri jalb qilgan holda ular faoliyatini yo'lga qo'yishga erishish;

- milliy qayta sug'urta bozori sig'imini kengaytirish va samaradorligini oshirish maqsadida sug'urta kompaniyalari ishtirokida qayta sug'urtalashga ixtisoslashgan o'zaro sug'urtalash jamiyatini tashkil etish.

Qayta sug'urta faoliyati sug'urta tashkilotlarining keng qamrovli faoliyat olib borishi uchun sharoit yaratib beradigan muhim soha hisoblanadi. Qayta sug'urtasiz sug'urta tashkilotlarining faoliyati faqat o'z imkoniyatlari doirasida chegaralanib qolgan bo'lar edi. Xuddi shunday, o'zaro sug'urta uchun ham qayta sug'urta xizmatlari muhim bo'lib, o'zaro sug'urta jamiyatlari qayta sug'urta xizmatlaridan tijoratga asoslangan qayta sug'urta tashkilotlari yoki o'zaro sug'urtaga asoslangan qayta sug'urta jamiyatlari vositasida foydalanishi mumkin.

Albatta bunda o'zaro sug'urtaga asoslangan qayta sug'urta jamiyatlarining xizmatlari arzon va ishonchli bo'ladi[9].

O'zbekiston milliy sug'urta bozorida qayta sug'urta sig'imi anchagina past bo'lib, buning sababi maxsus qayta sug'urta tashkilotining mavjud emasligi va qayta sug'urtani amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan sug'urta kompaniyalarining kamligidir. Shu sababli qayta sug'urtaga berilayotgan javobgarliklarning katta qismi xorijiy mamlakatlarning qayta sug'urta tashkilotlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa katta miqdordagi valyuta mablag'larining chetga chiqib ketishiga olib kelmoqda. Ushbu muammoni hal etish yo'llaridan biri sifatida milliy sug'urta bozorining barcha sug'urta tashkilotlari ishtirokida qayta sug'urtaga ixtisoslashgan o'zaro sug'urtalash jamiyatini tashkil etishdir.

O'zaro sug'urtalash mexanizmi mamlakatimizda yetarli rivojlanmagan bo'lsada, uning o'ziga xos xususiyatlaridan foydalangan holda milliy sug'urta bozorining rivojlanishiga katta ko'mak beradigan, hamda chet el kapitaliga qaramlikdan xoli bo'lgan ixtisoslashgan o'zaro qayta sug'urta tashkilotini tashkil etish imkonini berishi mumkin[10].

Sug'urta kompaniyalari birlashgan holda notijorat shaklidagi qayta sug'urtaga ixtisoslashgan o'zaro sug'urta jamiyatini tashkil etishi mumkin va bu tadbir mamlakat qayta sug'urta bozori sig'imining sezilarli oshishiga olib keladi. Bu esa o'z o'rnida, har yili valyuta ko'rinishida chetga chiqib ketayotgan katta miqdordagi qayta sug'urta mukofotlarini milliy bozorda saqlab qolish imkonini beradi. Shu bilan birga, ishonchli va arzon qayta sug'urta xizmatlarining yuzaga kelishiga olib keladi.

Xulosa (Zaklyucheniye. Conclusion). Amalga oshirilgan tahlillardan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, sug'urta infratuzilmasi sug'urta faoliyatining rivojlanishi, xizmatlar hajmi hamda samaradorligining oshishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda mazkur infratuzilma subyektlari faoliyati talab darajasida rivojlanmaganligi sug'urta xizmatlarining iqtisodiyotda yetakchi tarmoq sifatida shakllanishini birmuncha sekinlashtirmoqda. Natijada ko'p sondagi potensial sug'urtalanuvchilarda sug'urta xizmatlariga bo'lgan qiziqish pastligicha qolmoqda. Ushbu infratuzilma subyektlari faoliyatini rivojlantirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

1. Sug'urta kompaniyalari ishtirokida o'zaro sug'urtaga asoslangan qayta sug'urta jamiyatini tashkil etish orqali milliy sug'urta bozorining qayta sug'urta sig'imini oshirishga erishish.
2. Sug'urta bozorida assistans xizmatlarini rivojlantirish maqsadida assistans faoliyati nizomini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish. Ushbu faoliyatning rivojlanishini rag'batlantirish maqsadida assistans xizmatlarini uch yil muddatga foyda solig'idan (yagona soliqdan) ozod qilish. Sug'urta kompaniyalariga o'z tarkibida assistans xizmatini tashkil etish yoki alohida assistans tashkiloti bilan assistans xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma tuzish orqali ushbu xizmatni yo'lga qo'yish majburiyatini yuklash.
3. Sug'urta brokerlari faoliyatini rivojlantirish maqsadida brokerlik tashkilotlarini litsenziyalanuvchi subyektlar tarkibidan chiqarish va brokerlik tashkilotlarini uch yil muddatga foyda solig'i (yagona soliq) to'lashdan ozod qilish. Uch yildan keyingi davr uchun minimal soliq stavkasini belgilash.

References:

1. Ермолаев Г.Б. Информационная прозрачность и ее влияние на развитие инфраструктуры страхового рынка Кириш йўли: <https://cyberleninka.ru>.
2. Цыганов А.А. Экономическое содержание понятий, характеризующих страховой рынок и его структуру. М.: Издательский дом "Финансы и кредит", 2008, №1.
3. Шеннаев Х., Боймуродов Т. "Суг'урта иши", ўқув қўлланма. Т.: Иқбол нашриёти, 2006 й.
4. Qo'ldoshev Q.M. "Sug'urta texnologiyalari", darslik. T.: iqtisodiyot, 2021-y.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4412-son qarori.<https://www.lex.uz/docs/4459802>.
6. Qo'ldoshev Q.M. Sug'urta bozori. O'quv qo'llanma. Toshkent-iqtisodiyot 2011, 113 b.

7. Овчинникова Е. А. Особенности посреднической деятельности в страховании // Экономический журнал. - М.: Издательство Ипполитова, (2008) - № 15.
8. Осадець С. С. Страхування: Підручник / Керівник авт. колективу і наук, ред. Вид. 2-ге, перероб. і доп. (2002) К.: КНЕУ.
9. Qo'ldoshev Q.M. O'zbekistonda o'zaro sug'urtalashning metodologik asoslarini takomillashtirish. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya ishi. Toshkent-2019-y.
10. Sultanov D.M. O'zbekistonda risklarni qayta sug'urtalashda o'zaro sug'urtalash tamoyillarini qo'llash imkoniyatlari. // Moliya va bak ishi elektron ilmiy jurnali. -Toshkent 4-son, iyul-avgust, 2020.